
JOYLARDA “AYOLLAR DAFTARI”NI SHAKLLANTIRISHGA DOIR AMALGA OSHIRILAYOTGAN XATLOV JARAYONLARI O’RGANILYAPTI



Joylarda “Ayollar daftari”ni shakllantirishga doir amalga oshirilayotgan xatlov jarayonlari o’rganilyapti

Respublikamizda xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlashga doir amaliy ishlar qilinmoqda. Bunga joylarda «Ayollar daftari»ni shakllantirish va unga kiritilgan xotin-qizlar muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini tizimli o’rganish, tahlil qilish va hal etish borasidagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish uchun qilinayotgan ishlar misol bo’la oladi.

Ayni kunda tumanimizning barcha mahallalarida "Ayollar daftari"ning 6-bosqichini shakllantirish maqsadida xatlov jarayonlari olib borilmoqda. Ushbu yo’nalishdagi ishlar mutasaddi idoralar vakillari tomonidan o’rganilmoqda.

Rovon mahallasining yettilik xodimlari tomonidan olib borilayotgan xatlov jarayonlari So’x tuman hokimining o’rinbosari, oila va xotin-qizlar bo’limi boshlig’i Madinaxon Safarova va So’x tuman kasaba uyushmasi xodimlari tomonidan o’rganildi. Ishchi guruh vakillari tomonidan to’ldirilgan anketa so’rovnomalarining sifati va to’ldirish jarayonlari ham ko’zdan kechirildi.

Shuningdek, ishchi guruh vakillari va tuman hokimligi mutasaddilari o’rganish va xatlov jarayonida bevosita ishtirok etdilar. Manzilli o’rganilgan xatlov jarayonlari davomida har bir xotin-qizlarga to’ldirilgan anketa so’rovnomalarini yana bir qator ko’zdan kechirish va xotin-qizlarning muammolarini xonadonbay tizimi asosida mukammal o’rganishga doir tavsiyalar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-10 18:02:02

